

MAKTAB PSIXOLOGINING ISH FAOLIYATIDA BOLA PSIXIKASINI O'RGANISHDAGI ASOSIY PRINSIPLAR

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 26-maktab psixologi
Axmadaliyeva Barnoxon Farhod qizi*

Annotatsiya

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi

Kalit so'zlar: Bola shaxsi, psixolog, pedagog, xususiyatlari, pedagogika,

Bolalar psixologiyasi – psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha „Yosh psixologiyasi“ deb ataydilar.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang, kesma deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Maqsad bola haqida ko'proq ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'ladi va bolani individual shug'ullanganda ijobiy xususiyatlari kengroq ochiladi yoki aksi bo'lishi mumkin. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi.

Bola psixologiyasini rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak XIX asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqq boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogika, oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

Bola psixologiyasida emotsiyalar orqali uni nima hohlayotgani va muommolarini ko'rib tushunib bo'lmaydi chunki bola o'zining his-tuyg'ularini ko'proq quvnoqlikda namoyon etadi va hafagarchilikni tez esidan chiqaradi.

Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u

inson yaxshi bo‘ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o‘zi xulosa qilishga o‘rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati – bu ko‘zgudagi sizning aksingiz.

L.S.Vigotitskiyning fikricha, muhit oily psixik funksiyalarining taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotidagi ro‘li yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish. Insonda xulq-atvorning tug‘ma shakllari mavjud bo‘lmaydi. Odamning psixik taraqqiyot faoliyatining tarixan shakllangan turlari va usullarini o‘zlashtirish orqali kechadi. L.S.Vigotitskiyning va L.S.Obuxovanning fikricha katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Shu bois taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ta’lim hisoblanadi.

O‘zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Maktab ta’lim tashkilotlari oldida bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Psixologiyada ma’lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli egallab olish uchun shart-sharoitlar yaratadigan shaxsiy xususiyatlari qobiliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlning ziyraklik, fahm-farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sinchkovlik, sermulohazalilik kabi sifatleri bilan ajralib turishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O‘quv qo‘llanma - TDIU, 2014
2. Tulaganova G. K. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar. - T., 2005.
3. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- — Voris nashriyotil, Toshkent, 2012 y.
4. G‘oziyev E.G. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. 2003. 27. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T.: -200
5. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. Z.Nishanova, G.Alimova

